

**Mahfuza TO'LASHOVA**

# **TONG TAVSIFI**

Qarshi  
«Nasaf» nashriyoti  
2007



84(54)6

Yosh qalamkash Mahfuza To'lashova o'z she'riy mashqlarida Vatan, ona, tabiat kabi mavzularni tasvirlashga uringan.

Mahfuzaning she'rlarini o'qib baholash sizning e'tiboringizga havola, aziz kitobxon!

NATLIB.UZ

10.35009  
0

2008/77 Alisher Navoiy  
nomidagi  
17/14 O'zbekiston MF

T 4702620202-53 53-2007 M.To'lashova, 2007-y.  
376(11)2007  
ISBN 5-7323-0520-4

## MUSTAQIL ONA-YURT

Shu kunlarga yetdi ona yurt,  
Mustaqillik qadriga sen yet.  
Dalalarda yam-yashil o'tloq,  
Shaharlarda porlaydi chiroq.

Qo'shiq aytib yayrar bolalar,  
Yalla aytar qari momolar.  
Mustaqil, hur bo'ldi ona yurt,  
O'n oltiga to'ldi ona yurt.


Mag'rur, chin mehnatkash elim,  
Yurtboshi bor bilmaydi tinim.  
Butun dunyo O'zbekiston deb,  
Tan olmoqda bog'i bo'ston deb.



## O'ZBEKISTONIM

Jannatsan, O'zbekiston,  
Mustaqil nurli jahon.  
Sendadir davru davron,  
Chiroyingga sharaf-shon.

Go'zalsan hur guliston,  
Yerlaring bog'u buston.  
Bizlarmiz sendan nishon,  
Farzandlaringga ishon.



## VATANIM

Seni ko'rib vatanim, dillar yayrasin,  
Hush ovozli qushchalar mayin sayrasin.  
Shaharlaring ko'p go'zal kunda va tunda  
Qayda bo'lmayin doim xayolim senda.  
Onam kabi azizsan, go'zal chamanim,  
Dunyo ichra tanhosan, g'azal vamanim.

## VATANIM O'G'LONLARI.

Urrib tursa yuragi,  
Yerga tegmas kuragi.  
Yurtimning posbonlari,  
O'zbekim o'g'lonlari.  
Xizmat qilar eliga,  
Belbog' bog'lab beliga,  
Vatanim polvonlari,  
O'zbekim o'g'lonlari.  
Mehr porlar ko'zida,  
O't chaqnaydi izidan.  
Yurtimning shodonlari,  
O'zbekim o'g'lonlari.

## ONAM

Sen bo'lsang toshqin bir buloq,  
Men bo'lgayman mitti qo'zichoq.  
Shoshib oqsang dayrodek jo'shqin,  
Chalingayman bo'lib qo'ng'iroq.  
Mehring bersang quyoshdek to'lib,  
Bosh ko'targum misli gul bo'lib.  
Yo'lim yorug', dilim munavvar,  
Sen boqqanda doimo kulib.  
Onajonim, o'zingsan borim,  
Faqat sensan mening gulzorim.  
Sochlarimni silab boqasiz,  
Mehribonim, dilga yoqasiz.



## TONG OTMOQDA

Tong otmoqda vatanimda,  
Gul ochilgan chamanimda,  
Shabadalar tongda mayin,  
Mayin, mayin borgan sayin.

Bu mayinlik darak berdi,  
Bahor keldi, bahor keldi.  
Mana, tonglar yana otdi,  
Qo'llaringa qalam tutdi.

Qalam ushlab nogoh qo'lim,  
Tong tavsifin chizdi dilim.  
Tong quyoshi nur sochadi,  
Kunduz sehrin ochadi.



## BAHOR

Uchib keldi qushchalar,  
Barg chiqardi gulchalar.  
Yelkasiga mingashib,  
Erkalanib sirlashib.

Yangiliklarni izlab,  
Yaxshiliklarni ko'zlab,  
Kulib kelar oy bahor,  
Yurtimga qaytib takror.

Kulguga to'lib kelgin,  
Bayramga to'lib kelgin,  
Quvonchga to'lib kelgin,  
Baxtga to'lib kel, bahor.

Tayyorgarlik ko'r, momo,  
O'tin yorgin kel, bobo.  
Fayz taratdi bu nahor,  
Axir keladir bahor.





## GULLARIM

Gullarim ko'rganimda,  
Cheksiz ko'nghim yayraydi.  
Islarin tuyganimda,  
Shodliklarni chorlaydi.

Gulimga kapalaklar,  
Qo'nsa qo'nim topadi.  
Ko'rsa hatto qushchalar,  
Behad sayrab uchadi.

Derazamning oldida  
Bir go'zal gul bor edi.  
Uning nomi gerandir,  
U juda ham go'zaldir.

Suv qo'ysam gullarimga,  
Go'yo salom beradi.  
Tomchi tushgan bargalarin,  
Silkib ta'zim qiladi.



## ORZU

Gohida mislsiz o'yga tolaman,  
Olamda yo'g'ini istab qolaman.  
Qaylarga yetaklar orzu-umidlar,  
Shodlik chog'larimni she'rga solaman.

Dunyoni kezarman misoli bir qush,  
Ammo huning barisi orzu va tush.  
Ko'kka boqsam moviy osmonu falak,  
Hayot rangin ma'nodir misli kamalak.

Yam-yashil maysalar ko'm-ko'k dalalar,  
O'ynab yursam kulib, terib lolalar.  
Uyqudan ko'z ochsam ertalab nahor,  
Quyoshdek nur sochsam, men bo'lib bahor.

## DUNYO

Hayotlari doim bo'lgaymi ziyo,  
Ko'zlarim chaqnaydi yulduzdek go'yo.  
Nahot orzularim bo'ladi ro'yo,  
Odamiylikdadir andisha, hayo.

Insonlar bo'lsalar adolat quli,  
Axir o'zlaridir dunyoning guli.  
Bir-biriga uzatsalar qo'llarin,  
Yaxshilik yoritgay umr yo'llarin.

## KO'ZLAR

Otashi bo'lmasa yonmas ekan sham,  
Bu ko'zlar yarmisi qayg'u va alam.  
Hayotdan horigan ko'zlarni ko'rib,  
Negadir qo'linga olaman qalam.

Kunlar botib, erta tonglar otadi,  
Kimlar behudaga gaplar sotadi.  
Dunyoning yarmisi chayqalib tursa,  
Ayting, bu ko'zlarni kim uyg'otadi.

Otashin chaqmoqdek tikilar ko'zlar,  
Tog'lar ham evrilib berolmas bardosh,  
Olamni munavvar mahliyo etgan,  
Ziyobaxsh nur sochar misoli quyosh.



## XAYOL

Darsda o'tirsam ba'zan,  
Xayol surib qolaman.  
Ustozim meni ko'rib,  
Urishsalar salgina,  
Xafa bo'lib qolaman.  
Yana deyman o'zinga,  
Nega xafa bo'lasan?  
Xafa bo'lgin o'zingdan,  
Nega xayol surasan?  
Osmonlarga qush bo'lib,  
Odamlarga tush bo'lib,  
Xayol surib qolaman.  
Nega xayol surasan?  
Tushunmayman, sezaman,  
Butun dunyo kezaman.



## SINFIMIZ SHO'X BOLALARI

Sinfimiz bolalari,  
Sho'x, erkatoy o'zlari.  
Tig'dek o'tkir so'zlari,  
Yonib turar ko'zlari.

Sho'xlikda-ku tengi yo'q,  
Do'stlarimdan konglim to'q.  
Yillar o'tganda bir kun,  
Bo'lsin bu diydor ustun.

## FASLLAR

Qish faslida olamga yog'iladi oppoq qor,  
Kuz faslida dalaga oq paxtalar pok misol.  
Bahorimda bog'larda oq atirgul ochilar,  
Uning hushbo'y hidlari yon-atrofga sochilar.  
Yoz faslida oq qorlar erib daryoda oqar,  
Uning mayin ovozi shodon ko'ngilga yoqar.



## QOR YOG'AR

Qor yog'ar, qor yog'ar,  
Qor emas bu zar yog'ar.  
Onam aytar kiyin-kiyin,  
Tashqarida qizir o'yin.

Samodan qor yog'ar,  
Qatra-qatra don yog'ar.  
Qor parcha-yu, qor parcha,  
Bo'lar bahorga darcha.



## MUNDARIJA

Mustaqil ona-yurt.....	3
O'zbekistonim.....	4
Vatanim.....	5
Vatanim o'g'lonlari.....	5
Onam.....	6
Tong otmoqda.....	7
Bahor.....	8
Gullarim.....	9
Orzu.....	10
Dunyo.....	10
Ko'zlar.....	11
Xayol.....	12
Sinfimiz sho'x bolalari.....	13
Fasllar.....	13
Qor yog'ar.....	14

**ADABIY- BADIY NASHR**

**MAHFUZA TO' LASHOVA**

## **TONG TAVSIFI**

**(She'rlar)**

O'zbek tilida

Muharrir: Sh.Pirmatova.  
Texnik muharrir: Ch.Rahmonov.  
Musahhih: Sh.Mahmudova.

IB 1123

Terishga 7.11. 2007-yilda berildi. Bosishga 9.11. 2007-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84 x108  $\frac{1}{32}$ . Shartli bosma tabog'i-0,84. Shartli bo'yoq-ottisk-0,90. Nashr tabog'i-0,53. 68-2007-shartnoma. 98-buyurtma. 100 nusxada. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 180118. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.

Qashqadaryo viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi huzuridagi "Matbaa" sexida chop etildi.

Qarshi shahri, 180118. Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.